



IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI MAKTABLARIGA QABUL IMTIHONI MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI

KIMYO
9-SINF

2025/2026-o'quv yili

I. Ixtisoslashtirilgan maktablarga qabul imtihonlarini o'tkazishdan maqsad

Kimyo fanidan bilimlar darajasini aniqlash, muammolarni hal qilishda bilimlarni qo'llay olish, xulosa chiqarish va qaror qilish ko'nikmalarini tekshirish, munosib o'quvchilarni aniqlash.

II. Qabul imtihoni variantining tuzilishi

Imtihon savollarining har bir varianti kognitiv darajasi bilish, qo'llash, mulohaza qilish bo'lgan 20 ta bitta muqobil javobga ega bo'lgan test topshiriqlaridan iborat.

Test topshiriqlari umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-8-sinf kimyo fani o'quv dasturlari asosida tuziladi. Test topshiriqlari kimyo fanining quyidagi bo'limlarni qamrab oladi:

Kimyoviy element, kimyoviy belgi;

Anorganik birikmalarning muhim sinflari;

Kimyoviy qonunlar;

Kimyoviy bog'lanishlar;

Elektroliz qonunlari. Kimyoviy reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat. Oksidlanish-qaytarilish

Metallmaslar

Shuningdek, imtihon savollari uchta kognitiv darajada mos tuzilgan:

Bilish;

Qo'llash;

Mulohaza.

1-jadval
Bo'limlar bo'yicha topshiriqlarning taqsimoti

Mazmun soha	Topshiriqlar soni	Topshiriqlarning foizi
Kimyoviy element, kimyoviy belgi	5	25
Anorganik birikmalarning muhim sinflari	2	10
Kimyoviy qonunlar	3	15
Kimyoviy bog'lanishlar	3	15
Elektroliz qonunlari. Kimyoviy reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat.Oksidlanish-qaytarilish	5	25
Metallmaslar	2	10
Jami	20	100

2-jadval
Baholanadigan ko'nikmalar taqsimoti

Fan	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
Kimyoviy element, kimyoviy belgi	3	1	1
Anorganik birikmalarning muhim sinflari	1	1	
Kimyoviy qonunlar		3	
Kimyoviy bog'lanishlar		2	1
Elektroliz qonunlari. Kimyoviy reaksiya tezligi, kimyoviy muvozanat.Oksidlanish-qaytarilish		2	3
Metallmaslar		1	1
Jami:	4	10	6

Quyidagi o'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari baholanadi:

Faoliyat turi	O'quv va aqliy faoliyat ko'nikmalari darajasiga qo'yiladigan talablar
Bilish	Reproduktiv darajadagi topshiriqlarining mazmuni o'quvchilar tomonidan o'quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotira qobiliyatini aniqlovchi, qonuniyatlar, xossalar, formula, tushuncha va atamalarining mohiyatini bilish, yodda saqlash va tanish, odatiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan.
Qo'llash	Produktiv o'quv topshiriqlari – o'quvchilardan o'rganilgan mavzuga oid qonun va qonuniyatlar, xossalar va formulalarni qo'llash, berilgan topshiriqlarga mos usullarni tanlash, tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo'llab, umumlashtirish va xulosa yasashni talab qiladi.
Tahlil	Intellectual darajadagi topshiriqlar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni notanish vaziyatlarda qo'llash, tahlil qilish, sintezlash, qiyosiy taqqoslash, qonun va qonuniyatlarni qo'llab, umumlashtirishni talab qiladi.

3-jadval
Topshiriqlarda baholanadigan ko'nikmalar

T'v	Mavzular	9-sinf (savollar soni)	
I	Kimyoviy element, kimyoviy belgi	25 % 5 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
1	Atomning tarkibi. Elementar zarrachalar (nuklidlar, protonlar, neytronlar, elektronlar, nuklonlar).	1	Elementar zarrachalar (nuklidlar, protonlar, neytronlar, elektronlar, nuklonlar)ni farqlaydi va tarkibini ajrata oladi.
2	Izozarrachalar (Izotoplar. Izotonlar. Izobarlar. Izoelektronlar.)	1	Izozarrachalar, izotoplar, izotonlar. izobarlar, izoelektronlarni farqlay oladi.
3	Kvant sonlari. Atom qobig'ining orbitalarini elektronlar bilan to'ldirish prinsiplari va qoidalari (Pauli prinsipi, Klechkovskiy qoidalari, Gund qoidasi).	1	Kvant sonlari, atom qobig'ining orbitalarini elektronlar bilan to'ldirish prinsiplari va qoidalari mohiyatini talqin qila oladi.
4	Yadro reaksiyalari. Radioaktiv parchalanish. Yadro barqarorligi. Yadro kuchlari.	1	Yadro reaksiyalari, radioaktiv parchalanish jarayonlari mohiyati va ahamiyatini izohlaydi va qo'llay oladi.
5	Ekzotermik va endotermik reaksiyalar. Issiqlik effekti.	1	Ekzotermik va endotermik reaksiyalar, issiqlik effekti jarayonlarini asoslaydi va muammolarni hal qilishda qo'llay oladi.
II	Anorganik birikmalarning muhim sinflari	10 % 2 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
6	Oksidlar. Asoslar. Nomenklaturasi. Sinflanishi. Olinishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Qo'llanishi. Tarqalishi.	1	Oksidlar va asoslarni farqlaydi, fizik va kimyoviy xossalarni ajrata oladi, qo'llanilishi va tarqalishi ahamiyatini talqin qila oladi.
7	Kislotalar. Tuzlar. Nomenklaturasi. Sinflanishi. Olinishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Qo'llanishi. Tarqalishi.	1	Kislotalar va tuzlarni farqlaydi, fizik va kimyoviy xossalarni ajrata oladi, qo'llanilishi va tarqalishi ahamiyatini talqin qila oladi.
III	Kimyoviy qonunlar	15 % 3 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
8	Tarkibning doimiylik qonuni. Kimyoviy formulalar tuzish. Massaning saqlanish qonuni. Reaksiya unumi.	1	Tarkibning doimiylik qonuni, kimyoviy formulalar tuzish, Massaning saqlanish qonuni, reaksiya unumi kimyoviy hodisa, jarayonlarni tarkibiy qismlarga, guruhlariga ajrata oladi.

9	Karrali nisbatlar qonuni. Avogadro qonuni. Ekvivalentlar qonuni.	1	Karrali nisbatlar qonuni, Avogadro qonuni, Ekvivalentlar qonunining mohiyati va ahamiyatini tushunadi, izohlaydi
10	Gaz qonunlari. Izojarayonlar (Izobarik, Izoxorik, Izotermik). Mendeleyev- Klayperon tenglamasi.	1	Izojarayonlar (Izobarik, Izoxorik, Izotermik). Mendeleyev-Klayperon tenglamasi. Kimyoviy qonuniyatlarni tahlil qiladi va asosli qo'llaydi
IV	Kimyoviy bog'lanishlar	15 % 3 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
11	Kimyoviy bog'lanish va uning turlari. σ va π bog'lar.	1	Kimyoviy bog'lanish va uning turlari, σ va π bog'lar va ularning xususiyatlarini farqlaydi.
12	Kovalent bog'lanish. Qutbli va qutbsiz kovalent bog'lar. Bog' energiyasi. Bog' uzunligi. Bog' karraliligi	1	Kovalent bog'lanish, qutbli va qutbsiz kovalent bog'lar, bog' energiyasi, bog' uzunligi, bog' karraliligiga doir qonun va qoidalarni muammolarni hal qilishda asosli ravshda qo'llaydi, xulosa chiqaradi.
13	Ion bog'lanish. Metall bog'lanish. Vodorod bog'lanish. Donor-akseptor mexanizmi (Koordinatsion bog').	1	Ion bog'lanish, metall bog'lanish. vodorod bog'lanishlarni farqlaydi. Moddalar tarkibidagi bog'lanishlarni ajrata oladi.
V	Elektroliz qonunlari. Kimyoviy reaksiya tezligi. Kimyoviy muvozanat. Oksidlanish -qaytarilish reaksiyalari	25 % 5 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
14	Elektroliz. Faradey qonunlari. Eritma elektrolizi. Suyuqlanma elektrolizi.	1	Amaliy masalalar yechishda va muammolarni hal qilishda eritma elektrolizi xossalarini farqlaydi va qo'llay oladi.
15	Kimyoviy reaksiya tezligi. Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar. Vant-Goff qoidasi.	1	Kimyoviy reaksiya tezligini aniqlay oladi, Kimyoviy reaksiya tezligiga ta'sir etuvchi omillarni ajratadi, Vant-Goff qoidasini kimyoviy reaksiya tezligini aniqlashda qo'llay oladi
16	Kimyoviy muvozanat. Qaytar va qaytmas reaksiyalar. Kimyoviy muvozanatga ta'sir etuvchi omillar. Le-Shatelye prinsipi.	1	Qaytar va qaytmas reaksiyalarni ajrata oladi va kimyoviy muvozanatga ta'sir etuvchi omillarni farqlaydi, Le-Shatelye prinsipini muammolarni hal qilishda asosli qo'llaydi va chiqarilgan xulosani izohlay oladi,
17	Oksidlanish darajasi. Oksidlanish, qaytarilish, oksidlovchi va qaytaruvchi tushunchalari.	1	Oksidlanish darajasi, oksidlanish, qaytarilish, oksidlovchi va qaytaruvchi tushunchalari mohiyatini anglaydi va farqlaydi.
18	Oksidlanish-qaytarilish reaksiya turlari. Asosiy oksidlovchi va qaytaruvchilar.	1	Oksidlanish-qaytarilish reaksiya turlarini farqlaydi, asosiy oksidlovchi va qaytaruvchilarni ajrata oladi, amaliy muammolarni hal qilishda ularning ahamiyatini baholaydi va izohli xulosa chiqara oladi.
VI	Metallmaslar	10 % 2 ta topshiriq	Baholanadigan ko'nikma
19	Galogenlar. Xalkogenlar. Tuzilishi. Fizik va kimyoviy xossalari. Tarqalishi.	1	Galogenlar va xalkogenlarni farqlaydi. Ularning tuzilishi, fizik va kimyoviy xossalarini ajrata oladi va kimyoviy jarayonlar ifodalangan diagramma, grafik, chizma va kontekstdan foydalanib, xulosa qila oladi.
20	PNiktogenlar. Azot va fosforning olinishi, fizik kimyoviy xossalarini o'rganish. Azot va fosforning vodorodli va kislorodli birikmalarini olinishi, fizik kimyoviy xossalari	1	Azot va fosforning olinishi jarayonini anglaydi va fizik kimyoviy xossalarini farqlaydi Azot va fosforning vodorodli va kislorodli birikmalarining olinishi ifodalangan jarayonlarni diagramma, grafik, chizma va kontekstdan foydalanib, izohlay oladi.

Javoblar varaqasini to'ldirish shartlari:

Test topshiriqlarida javob variantlarining faqat bittasi tanlanadi, ikki va undan ortiq tanlangan javoblar uchun ball berilmaydi.

Spetsifikatsiyada ko'rsatilgan mavzular quyidagi adabiyotlardan olingan:

1. I.R.Asqarov, K.G'opirov, D.Azamatova, Sh.Ganiyeva 7-sinf kimyo «SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent — 2022
2. I.R.Asqarov, K.G'opirov, N.X.To'xtaboyev 8-sinf Kimyo Toshkent «YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE» 2019